

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA IQTISODIYOT SOHASIDAGI O‘RNI.

Eshonqulov Akmal Qudratovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0003-1826-6715>

Abdullayev Sohib Sadulla o‘gli

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,

chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining

Toshkent filiali “Iqtisodiyot” fakulteti talabasi.

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy o‘shishi, bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi yoritilgan. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng iqtisodiyotni barqarorlashtirish jarayoni haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, taraqqiyot, revolyutsiya, ilmiy-texnikaviy, demografik, bozor.

МЕСТО ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В ПЕРВЫЕ ГОДЫ ЕЕ НЕЗАВИСИМОСТИ.

Аннотация: В состоянии описывается экономический рост Республики Узбекистан, становление и развитие рыночной экономики в годы независимости. В данном государстве рассказывается о процессах стабилизации экономики после приобретения Республики Узбекистан независимости.

Ключевые слова: экономика, развитие, революция, наука и техника, демография, рынок.

THE PLACE OF THE ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE FIRST YEARS OF ITS INDEPENDENCE.

Abstract: The article describes the economic growth of the Republic of Uzbekistan, the formation and development of a market economy during the years of independence. This article describes the process of stabilizing the economy after the Republic of Uzbekistan gained independence.

Key words: economics, development, revolution, scientific and technical, demographic, market..

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy revolutsiyasi bu mustaqillikka erishgan yillardanoq boshlanadi. Unga ko‘ra, mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda taraqqiyotning “O‘zbek modeli” yaratilgani va undagi 5 tamoyilda iqtisodiyotga ham alohida urg‘u berilganligi bu- mustaqillikning dastlabki yillaridayoq iqtisodiy

barqarorlikni shakllantirish, yakka hokimlik tizimi illatlarini tezroq bartaraf etish, yurtimizni rivojlangan, ma'daniyatli mamlakatlar qatoriga chiqib olishi ko'zda tutilgan edi. Taraqqiyotning o'zbek modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ya'ni iqtisodiyot siyosatdan ustun bo'lishi kerak. Shuningdek, ichki, tashqi va iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi etishni ta'minlash zarur;

ikkinchidan, o'tish davrida davlat asosiy islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi shart;

uchinchidan, qonun ustuvorligiga erishish, qonunlarga qat'iy rioya etish lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni barcha hech istisnosiz hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim;

to'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish kerak;

beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotning ob'ektiv qonuniyatlarini e'tiborga olib, yaqin o'tmishdagi "inqilobiy sakrashlar" siz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.[5]

Adabiyotlar sharxi. 1991-yil 14-iyun, 285-XII-son "O'zbekiston respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy qoidalarini va bu faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi. Qonun mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchilarining huquqlari, manfaatlari va mol-mulki xalqaro huquqning e'tirof etilgan normalariga muvofiq muhofaza qilinishini ta'minlaydi, respublika iqtisodiyoti jahon iqtisodiy sistemasiga samarali ravishda qo'shilishi uchun huquqiy asos yaratib beradi. Ushbu Qonun tashqi iqtisodiy aloqalarning barcha turlari va shakllariga, shu jumladan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlikka, kadrlar tayyorlashga, tashqi savdo va chegara savdosiga, sug'urta, bank, transport operatsiyalariga, sayyohlikka va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi boshqa faoliyatga nisbatan amal qiladi.[1]

1992-yil 23-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 474-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil qilish to'g'risida"gi loyiha yoritilgan bo'lib, O'zbekistonni iqtisodiyoti bo'yicha yetuk mutaxassislar tayyorlash va iqtisodiyotni jahon miqyosida olib chiqish, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda ushbu universitetida yetuk kadrlar yetishib chiqmoqda, bu esa, iqtisodiyotni ya'nada rivojlanishga Zamin yaratadi. [2]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida

ko'pgina ishlar olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyati qurish, korxonalar aksiyasini chiqarish, auksion (kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.[3]

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirishda eksport va import ham juda muhim rol o'ynar edi. Oddiygina bunga misol qilib aytsak, iqtisodiyotdagi barqarorlik O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarida, eksport va import tuzilmasida katta sifat o'zgarishiga olib keldi: agar 1991-yilda eksport tarkibida paxta tolasining ulushi 77,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1998-yilda uning ulushi 38,6 foizga tushdi.

“Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhimsiz - tovar, pul bozorlarida va mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashi kerak bo'lgan bozor infrastrukturasisiz tasavvur etib bo'lmaydi...” deydi O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov. Darhaqiqat, O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Respublika iqtisodiyotining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlarida, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda yanada takomillashtirib borildi. Ko'pgina qarorlarga o'zgartirishlar kiritildi va hozir ham bu ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.[4]

Xulosa qilib aytganimizda o'z uyingizni qurayotganda birinchi bo'lib uning poydevorini barpo etkaningiz kabi bizning yurtimizda iqtisodiyotni yuksaltirish uchun mustaqillik yillarida birinchi uning poydevoriga asos solindi qo'yildi. Uning poydevorini mustahkam bo'lishi uchun birinchi navbatda uning loyihasi pishiq bo'lishi kerak. Bizning mamlakatimizda ham mustaqillikning dastlabki yillarida bu borada ko'plab qonun loyihalari imzolandi, Prezident farmonlari e'lon qilindi. Demak yuksalish uchun, iqtisodiyotni rivojlantirish oldindan puxta reja asosida amalga oshirilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi iqtisodiy islohatlar ko'r-ko'rona emas, balki, uzoqni o'ylagan holda amalga oshirilganiga guvoh bo'ldik. Taraqqiyotning o'zbek modelida iqtisodiyotga alohida urg'u berib o'tilgan. Shuni ta'kidlash joizki, mustaqillikda bozor iqtisodiyotiga utish oqilona fikr bo'lgan. Chunki, o'sha davrdagi mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvol anchagina achinarli ahvolda edi. Shu bois, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish ishlari amalga oshirilgan.

Mamlakatimiz Sobiq SSSR dan ajralgandan so'ng, iqtisodiy muammolar vujudga kela boshlagan. Yurtimizda o'sha davrlarda narxlarning keskin oshishi natijasida ko'pgina ko'ngilsiz voqealar, har xil tartibsizliklar, bozordagi mahsulotlar batamom tugashi, iqtisodiyot keskin darajada pasayishi aholiga jiddiy tasir ko'rsatgan. Bu muammolar Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov oqilona olib borilgan siyosatlar natijasida izga tusha boshlagan. Iqtisodiyotni rivojlanishiga doir ko'pgina qarorlar, farmonlar ko'r-ko'rona emas, balki aholini sharoitidan kelib chiqilgan holda yurtimizga tatbiq etilgan. Ushbu jarayonlar I.Karimovning 1996-yilda chop etilgan “O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura” asarida ham keng yoritilgan.

Bundan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, hozirgi rivojlanishlar, iqtisodiy o‘shlar oldindan puxta ishlanib xalqimizni o‘ylagan holda hayotga tatbiq etib borilgan va hozirda bu ishlar davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi qonun. 1991-yil 14-iyun.
2. 1992-yil 23-sentabr, “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil qilish to‘g‘risida”.
3. “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi qarori.
4. I.A.Karimov “O‘zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo‘lida” T.O‘zbekiston 1995 97-bet.
5. I.A.Karimov. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” Toshkent. 1992-yil.